CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.14.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SODIQOV MUHAMMADALI ABDULLAXAT O‘G‘LI

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABLARIDA ONA TILI O‘RGATISH DARSLARINI INTEGRATIV TASHKIL ETISH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERAT

Chirchiq – 2026

UO‘K: 378.147.091.31-059.2

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Sodiqov Muhammadali Abdullaxat o‘g‘li
Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish metodikasi……3

Садиков Мухаммадали Абдуллахат угли
Методика интегративной организации уроков по родному языку в школах глухих и слабослышащих детей …….....21

Sodikov Muhammadali Abdullakhat ogli
Mother tongue teaching lessons in schools for deaf and weak hearing children method of integrative organization …….41

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....45

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/27.09.2024.Ped.14.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

SODIQOV MUHAMMADALI ABDULLAXAT O‘G‘LI

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABLARIDA ONA TILI O‘RGATISH DARSLARINI INTEGRATIV TASHKIL ETISH METODIKASI

13.00.03 – Maxsus pedagogika

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERAT

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasida B2026.2PhD/Ped13042 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.adpi.uz) va "ZiyoNyet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jo'raxo'jayev Muhammadazizxo'ja Xalilxo'ja o'g'li** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Rasmiy opponentlar:	Fayziyeva Ubayda Yunusovna pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Qurbonova Zilola O'rolovna pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yetakchi tashkilot:	**Jizzax davlat pedagogika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.01/2025.27.12.Ped.04.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «18» 11 soat 16⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (+99871) 712-27-55; faks: (+99871) 712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (554 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (+99871) 712-27-55; faks: (+99871) 712- 45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "04" 12 da tarqatildi.
(2026-yil "04" 11 dagi 41 - raqamli reestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

KIRISh (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kar va zaif eshituvchi bolalar va kattalarning kompleks reabilitatsiyasi, ijtimoiy-mobil adaptatsiyasini ta’minlashning innovatsion pedagogik mexanizmlarini korreksion va inklyuziv ta’lim amaliyotiga keng joriy etishga e’tibor kuchaygan. YUNESKO tashkilotining “Ta’lim hamma uchun” xalqaro dasturi doirasida rivojlanishida turli muammolari bo‘lgan bolalarning individual imkoniyatlariga yo‘naltirilgan ta’limni tashkil etish, ularning ijtimoiy- iqtisodiy, madaniy-ma’rifiy munosabatlarda faol ishtirokini ta’minlash, kar va zaif eshituvchi bolalarda nutqiy faollik, muloqot motivatsiyasini kuchaytirish, aholi o‘rtasida o‘zaro munosabatlarda inklyuzivlashgan maqsadlarni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Shu bois kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘rgatishda fanlararo integratsiya asosida ularning faol lug‘atini boyitish, og‘zaki va yozma muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda ijtimoiy hayotga moslashuvini ta’minlashga mo‘ljallangan metodik tizimni takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyoning AQSh, Germaniya, Avstriya, Fransiya, Koreya, Rossiya, Belorussiya, Qozog‘iston kabi davlatlarida uzluksiz ta’limning har bir bo‘g‘inida inklyuziv ta’limdan inklyuziv jamiyatga asoslangan sifatli ta’limni tashkil etishning yetakchi tendensiyalarini hamda alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitishda qo‘llaniladigan variativ texnologiyalarni takomillashtirish, adaptiv tarzda tatbiq etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xususan, nogironlikni erta aniqlashning innovatsion metodikalari vositasida cheklangan imkoniyatlarni korreksiyalash va kompensatsiyalash texnologiyalari yordamida kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini samarali o‘rgatish, ularda og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini intensiv rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda. Shu jihatdan, kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini integrativ o‘rgatish metodikasini takomillashtirish hamda mustaqil nutqiy muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda alohida ta’lim ehtiyojlari bor bolalarning inklyuziv va korreksion ta’limi va tarbiyasini zamonaviy pedagogik strategiyalar asosida moderinizasiyalash, bu jarayonga sifatli kadrlarni tayyorlashning huquqiy meyorlari takomillashtirilgan. “O‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma - bosqich tatbiq etish”, - vazifasi belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifa zaif eshituvchi bolalar bilan tarbiyaviy-korreksion mashg‘ulotlar olib borishda individual yondashuvlarga asoslangan usullar, texnologiyalar va assistiv vositalardan foydalanishni taqozo etadi. Zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining oilaviy hayot haqidagi tasavvurlarini real sharoitlar tahlilida hamda zarur nutqiy baza negizida kengaytirishda ta’lim tashkilotlari va ijtimoiy institutlar o‘rtasidagi manfaatli sinergetik faoliyat hamda pedagoglarning innovatsion faoliyati muhim sanaladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 29.04.2019 yildagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/-4312785?ONDATE=29.04.2019

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish choralari to‘g‘risida”, 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 13-oktabrdagi PQ-4860-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’limini korreksion-kompensatsion texnologiyalar yordamida rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik va metodik jihatlari G.Abdullayeva, F.Alimxo‘jayeva, N.Bekmurodov, X.Gaynutdinov, N.Dadaxo‘jayeva Z.Mamarajabova, D.Nazarova, X.Raximova, R.Rustamova, U.Fayziyeva, F.Qodirova, D.Yakubjanovalarning ilmiy izlanishlarida tadqiq qilingan. Bundan tashqari milliy maxsus pedagogikada nutqida, aqliy rivojlanishida, ko‘rishida muammolari bo‘lgan o‘quvchilar ta’limini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etishning didaktik imkoniyatlari M.Ayupova, N.Abidova, L.Mo‘minova, D.Nurkeldiyeva, R.Shomaxmudova, G‘.Shoumarov, N.Raxmonqulova, X.Pulatova, M.Hamidova, M.Xakimova, A.Xoliqovlar va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiqqa tortilgan va amaliyotga tavsiyalar joriy etilgan.

MDH davlatlari olimlaridan I.Bagrova, R.Boskis, L.Golovchits, O.Zontova, S.Zыkov, YE.Kuzmicheva, E.Leongard, L.Neyman, L.Noskova, T.Pelimskaya, F.Rau, N.Shmatkolar tomonidan kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning metodik, kommunikativ ish tizimi tadqiq qilingan.

A.Uden, V.Esterbruks, E.Dornan, Richerd Rieser, Jann Peter, Spek Otto, Isobel Leybold-Johnsonlarning ilmiy izlanishlarida “auditory-verbal metod”, ya’ni eshitish qoldig‘idan optimal foydalanishga asoslangan o‘qitish usullari tadqiq etilgan va ularning natijalarida ona tiliga o‘rgatish eshitish ustida ishlashga bevosita bog‘liqligi asoslab berilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot ishi Andijon davlat pedagogika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Sohada ta’lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta’minlash orqali ta’lim sifatini

yaxshilashga qaratilgan amaliy va innovatsion tadqiqotlarni amalga oshirish” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning korreksion-didaktik imkoniyatlarini aniqlash;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish modelini takomillashtirish;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish texnologiyalarini takomillashtirish;

integrativ tashkil etilgan ona tili darslarida o‘quvchilar nutqining rivojlanganligini baholash mezonlarini maqbullashtirish.

Tadqiqotning obyekti kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Andijon, Jizzax va Toshkent viloyatlari kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlarining jami 319 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jalb etilgan.

Tadqiqotning predmetini kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish metodikasini takomillashtirishning mazmuni, shakl, usul va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o‘rganish, sotsiometrik metodlar (anketa, intervyu, suhbat), pedagogik eksperiment, natijalarni matematik-statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning korreksion-didaktik imkoniyatlari dars, yakka va tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning faol lug‘atini boyitishga yo‘naltirilgan ish turlarini instruksiyali modellashtirilgan muloqot jarayonida diologli refleksiv munosabatda qo‘llash orqali aniqlashtirilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish modeli bloklari kombinatsiyasi muloqotga motivatsiyalovchi vaziyatboplik, moslashuvchanlik tamoyillarini daktil, og‘zaki daktil, og‘zaki nutq kabi til o‘rganish bosqichlariga individuallik darajalarda singdirish asosida takomillashtirilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning nutqiy nafas va ovoz, artikulyatsiya mashqlari hamda bog‘langan nutqni rivojlantiruvchi interfaol usullari o‘quvchilarning mustaqil muloqotiga yo‘naltirilgan o‘zaro nutqiy korreksiya jarayonda konsentrli kommunikativlik imkoniyatlariga ko‘ra takomillashtirilgan;

integrativ tashkil etilgan ona tili darslarida o‘quvchilar nutqining rivojlanganligini baholash mezonlari daktilni o‘qish, og‘zaki murojaatni tushinish, tizimli yozma bayon qilishga o‘rgatuvchi uy topshiriqlarini darsdan tashqari paytlarda

nutqiy konstruksiyalarni situativ modellashtirish jarayonida personal maqbullashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

kar va zaif eshituvchi bolalar maxsus maktab-internatlarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish orqali o‘quvchilarning nutqini o‘zbek tili qoidalari asosida rivojlantirish metodlari va omillari aks etgan “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli darslik nashr etilgan va amaliyotga joriy etilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatishga mo‘ljallangan Ona tili, O‘qish, Nutq o‘stirish, Predmetli amaliy ta’lim fanlariga doir nutqiy topshiriqlarni integrasiyalashning didaktik ta’minotini takomillashtirish maqsadida “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ona tilida o‘z fikrini nutqiy vaziyatga mos ifodalash ko‘nikmalarini maktabda, tarbiyaviy mashg‘ulotlarda va oilaviy munosabatlarda rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalarni aks ettirgan “Aqlli grammatika” lingvistik algoritm ishlab chiqilgan va amaliyotda qo‘llanilgan;

kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini samarali o‘qitishga mo‘ljallangan usul va texnologiyalarning amaliyotga adaptiv joriy etilishini ta’minlashga qaratilgan amaliyotchi-o‘qituvchilar uchun “Ona tili darslarini integrativ o‘qitish-o‘quvchilarni ona tilida muloqot qilishga o‘rgatish omili sifatida” nomli metodik seminar va Master klass dasturi hamda ishlanmalari joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy yondashuvlar, metodlarning respublikamiz va xorijda yaratilgan umumiy pedagogika va maxsus pedagogikaga oid nazariy ta’limotlar va ilmiy-metodik tadqiqotlarga, sohaning yetakchi professor-o‘qituvchilari tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos va o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot usullari va vositalarining qo‘llanganligi, tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi ta’minlanganligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, tadqiqot natijalarining vakolatli respublika tashkilotlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini integrativ o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari, xususan, alohida ehtiyojli bolalarga o‘zbek tilini o‘rgatishga mo‘ljallangan ona tili, o‘qish, nutq o‘stirish, predmetli amaliy ta’lim fanlarini integrativ o‘qitishni modellashtirishga, korreksion va tarbiyaviy mashg‘ulotlarda grammatik topshiriqlarni eshitish, eshitish-ko‘rish va ko‘rish bosqichlarida taqdim etishning metodik tizimi tahlil etilganligi, o‘quvchilarda faol lug‘atni o‘zlashtirish va fikrni ifodalash ko‘nikmalarini rivojlantirishga mo‘ljallangan metodik modeli takomillashtirilganligi va uni amaliyotga tatbiq etishning qulay pedagogik shart-sharoitlari, korreksion-rivojlantiruvchi mexanizmlari ishlab chiqilganligi, shuningdek, ilmiy-metodik tavsiyalar innovatsion pedagogik instrumentlar va texnologiyalar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati kar va zaif eshituvchilarning ona tilida o‘z fikrini ifodalash va faol lug‘atdan foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha pedagogik yondashuvlar, mexanizmlar va innovasion texnologiyalar bilan takomillashtirilgan metodik model bloklarida ko‘zda tutilgan integrativ-adaptiv

metodik tizimdan surdopedagogika sohasidagi tadqiqotlarni olib borishda hamda maktab-internatlari uchun o‘quv reja, fan dasturlari, o‘quv metodik adabiyotlarni tayyorlashda, kadrlar tayyorlash tizimida ma’ruza, amaliy mashg‘ulotlar, malakaviy, pedagogik amaliyotlar mazmunini boyitishda qo‘llashga mo‘ljallanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish metodikasini takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning korreksion-didaktik imkoniyatlari dars, yakka va tarbiyaviy mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarning faol lug‘atini boyitishga yo‘naltirilgan ish turlarini instruksiyali modellashtirilgan muloqot jarayonida refleksiv munosabatda qo‘llashga oid tavsiyalar “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan 194-550 raqamli guvohnomasi). Natijada, kar va zaif eshituvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ona tilini o‘qitish jarayonini nafaqat maxsus ta’limda, balki inklyuziv ta’lim sharoitida ham integrativ o‘qitish uchun metodik ta’minot takomillashtirilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish modeli bloklari kombinatsiyasi muloqotga motivatsiyalovchi vaziyatboplik, moslashuvchanlik tamoyillarini daktil, og‘zaki daktil, og‘zaki nutq kabi til o‘rganish bosqichlariga individuallik darajalarda singdirishga doir takliflari “Inklyuziv ta’lim. Gospital pedagogika” nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-maydagi 194-sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan 194-550 raqamli guvohnomasi). Natijada ona tili maxsus metodikasi bo‘yicha pedagoglarning innovasion faoliyatini tashkil etish va kadrlar tayyorlash jarayonida amaliy tajribalarga yo‘naltirilgan o‘quv muhiti yaratishga xizmat qilgan;

kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning nutqiy nafas va ovoz, artikulyatsiya mashqlari hamda bog‘langan nutqni rivojlantiruvchi interfaol usullari o‘quvchilarning mustaqil muloqotiga yo‘naltirilgan o‘zaro nutqiy korreksiya jarayonini tashkil etishga oid tavsiyalari Andijon, Jizzax va Toshkent viloyatlari kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus maktab-internatlarining jarayonini innovatsion tashkil etish amaliyotida qo‘llangan (O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik Respublika tashxis markazining 2025-yil 10-sentabrdagi 01/10-01-270-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarga ona tilini integrativ yondashuvlar asosida o‘qitishning samarali texnologiyalarini ommalashtirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish tavsiya

qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta, shundan, respublika jurnallarida 5 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 139 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

“Kirish” qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida boshlang’ich sinf kar va zaif eshituvchi o’quvchilarga ona tilini fanlar integrasiyasida o’rgatishning zarurati, nazariy asoslari, mazkur toifa o’quvchilarga til o’rgatishning pedagogik-psixologik hamda metodik jihatlari bayon etilgan, shuningdek, muassasalarda ona tili o‘rgatish darslarini tashkil etishning mavjud holatini tahlil qilish hamda amaliyotdagi kamchiliklar va ularning sabablarini aniqlash bo’yicha ishlar mazmuni yoritilgan.

Kar va zaif eshituvchi bolalarning ona tili asosida nutqini rivojlantirish masalasi pedagogik-psixologik, ijtimoiy-siyosiy tavsifga egadir. Buning asosiy sababi shuki, mazkur toifa bolalarni kelajakda boqimanda bo‘lmasdan, mustaqil ravishda muayyan kasb bilan shug‘ullanishiga erishishda ona tilini egallash muhim omildir. Til orqali ular turli ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa munosabatlarga kirishadilar. Kasb egallashlari uchun ham ona tilida og‘zaki va yozma bayon ko‘nikmalari taqozo etiladi. Sog‘lom bolalar eshitgani uchun tilni egallashda kattalarga taqlid qiladi, mustaqil ravishda muloqotning ilk ko‘nikmalarini egallay oladi. Eshitish qobiliyatining turli darajadagi pasayishi yoki buzilishi esa, og‘zaki nutqni qabul qilish hamda o‘z fikrini og‘zaki bayon qilish, o‘zgalarga yetkazishda qiyinchilik tug‘diradi. Chunki nutqni egallayotgan kar va zaif eshituvchi bola faqat uning shakl tomoninigina emas, balki uning ma’no tomonini ham egallaydi. Bu esa, kar va zaif eshituvchi bola uchun juda qiyin va uzoq davom etadigan jarayondir. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning ijtimoiy zaruratini asoslash maqsadida o‘rganib, tahlil qilgan barcha manbalarimizda sog‘lom bolalarga nisbatan aytilgan har qanday pedagogik qarash mazkur toifa bolalarga ham birdek taaluqlidir. Chunki kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog‘lom bolalar kabi shaxs rivojlanishining turli bosqichlarini bosib o‘tadilar. Ularning aqliy rivojlanishi me’yorda kechsada, nutqni egallashi qiyinligi sababli sog‘lom bolalarga nisbatan ona tilini uzoqroq muddatda egallaydilar. Sanab o‘tilgan savollar kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning metodik tizimini takomillashtirishda asos bo‘luvchi ma’lumotlarni umumlashtirish imkoniyatini berdi.

Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning ijtimoiy zaruratini asoslash maqsadida o‘rganib, tahlil qilgan barcha manbalarimizda sog‘lom bolalarga nisbatan aytilgan har qanday pedagogik qarash mazkur toifa bolalarga ham birdek taaluqlidir. Chunki kar va zaif eshituvchi bolalar ham sog‘lom bolalar kabi shaxs rivojlanishinng turli bosqichlarini bosib o‘tadilar. Ularning aqliy rivojlanishi me’yorda kechsada, nutqni egallashi qiyinligi sababli sog‘lom bolalarga nisbatan uzoqroq muddatni talab etadi.

Asoslovchi tadqiqotda kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning mazmuni va o‘ziga xosligini tushunishda surdopedagogika fani rivojlanishini tahlil qilish zarurati tug‘ildi. Surdopedagogik qarashlar va g‘oyalarning paydo bo‘lishi va umumiy pedagogikada o‘rin topishi chuqur tarixga borib taqaladi. Fanning rivojlanish bosqichlarida faoliyat olib borgan olimlar va amaliyotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-amaliy qarashlarida eshitishida muammolari bo‘lgan insonlarga ona tilini o‘rgatish falsafa, tibbiyot, tabiiy fanlar, psixologiya, fiziologiya, tilshunoslik va boshqa fanlar bilan uyg‘unlashishi ta’kidlangan. Kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatishning ilk davrida muloqot o‘rnini bosuvchi nutq shakllaridan foydalaniladi. D.Mayansning tilga o‘qitishning dastlabki davriga bag‘ishlangan kuzatishlari kar bolalarning so‘z va gaplarni tushunishi va iste’mol qilishiga bag‘ishlanadi. Biroq «iste’mol qilish» rasmlarga so‘z va jumla tanlash tajribasi asosida o‘rganildi. Rasmlarga so‘z va jumla tanlash, ulardan muloqotda, jonli nutqda foydalanish degan gap emas. M.Tomilovaning tavsiyalarida ko‘rsatilishicha, kar bola qanchalik erta mustaqil yozishni bilsa, u atrofdagilar bilan kengroq muloqot qilish imkoniyatiga shunchalik tez ega bo‘ladi. Keltirilgan ma’lumotlarda kar bolalarni tilga o‘qitishning dastlabki davrida yozma nutqning roli va ahamiyati, mazkur nutq ustida ishning mazmuni va yo‘nalishi haqida fikr yuritilgan.

N.Morozova esa, eshitishida muammolari bo‘lgan bolalar sezgilarning o‘zaro bog‘liq harakatlari idrokka ta’sir qilishini va idrok olamni egallashda muhimligini quyidagicha sharhlaydi: “Uzoq muddat so‘zning yo‘qligi barcha analizatorlarning faoliyatlarida ko‘rinadi, natijada idrok o‘ziga xos shakllanadi. Predmetli tashqi olam yetarlicha turkumlanmay, mohiyati tavsiflanmagan holda nutqsiz qabul qilinadi”. Demak bundan ko’rinib turibdiki, kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o’rgatish o’ziga xos metodik tizimni talab etadi.

Kar bolalarga ona tilinini integrativ o’qitishning zarurati quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi: 1) kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini o‘rgatish ta’limning bosh maqsadini amalga oshirishda muhimdir; 2) ona tili maxsus metodikalar orqali bir nechta fanlar asosida o‘rgatiladi va bu metodika tizimlilikda qo‘llangandagina natija beradi; 3) kasb-hunarni o‘rgatish ishlari ham ona tili o‘qitish ishlari bilan uyg‘unlashadi, ya’ni tilni bilish asosida kasb mohiyatini anglashga erishiladi; 4) atrofdagilar bilan muloqotga va kasb-xunarni egallashga tayyor bo‘lish orqali o’quvchilar jamiyatga moslashadi, ijtimoiylashadi.

Mamlakatimiz olimlari - F.Qodirova, U.Fayziyeva, F.Salomova, O.Ishmatova va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar kar va zaif eshituvchi bolalarning ijtimoiylashuvi va mustaqil jamiyat hayotiga moslashishini ta’minlash muammolariga bag‘ishlangan. Xususan, U.Fayziyeva kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning talaffuz

va nutq rivojlanishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, talaffuzni maqsadli o‘rgatish orqali og‘zaki nutq ko‘nikmalarini - ya’ni ona tilida erkin va samarali muloqot qilish qobiliyatini shakllantirish ijtimoiy integratsiyaga xizmat qilishini ta’kidlaydi. Maktab ta’limi davomida o‘quvchilarning ijtimoiy tajriba va muloqot salohiyatini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

F.Qodirova kar va zaif eshituvchi bolalarga og‘zaki nutq, boshqa nutq shakllari hamda labdan o‘qish ko‘nikmalarini maqsadli tarzda o‘rgatish ularning ijtimoiy faolligi, kommunikativ mustaqilligi va ruhiy rivojlanishida muhim rol o‘ynashini qayd etib, amaliyotga “nutqiy akseleratsiya” atamasini kiritadi. Nutqiy akseleratsiya - tayyorlov va 1–2-sinf davrida nutq zaxirasini intensiv boyitishning eng faol bosqichi hisoblanib, shu bosqichda zaif eshituvchilarning jamiyat ichidagi munosabatlarni tushunish, muloqotga kirishish va ijtimoiy rollarni bajarish qobiliyatlarini shakllantirish zarur. Aks holda, ushbu toifadagi o‘quvchilar o‘sib-ulg‘ayganlarida ijtimoiy muhitda fikrini ifoda etish, muloqotda ishtirok etish va o‘z ehtiyojlarini samarali ifoda etishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin.

Asoslovchi tadiqotda kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida ona tilini integrativ o’qitishning mavjud holati tahlil qilindi Bunda sinflar kesimida “Nutq o‘stirish”, “Ona tili”, “Nutqiy muloqot”, yakka va tarbiyaviy mashg‘ulotlar kuzatildi. Aksariyat darslarning mavzularida o‘quvchilarni ona tilida o‘z fikrini og‘zaki va yozma ravishda nutqiy muhitga mos ravishda aytishga o‘rgatuvchi bir-biriga o‘shash topshiriqlar mavjudligi kuzatildi. Demak, o‘qituvchi darslarni modellashtirayotganda aynan takrorlanuvchi topshiriqlarni bajartirishda boshqa darsda olingan bilimlariga tayanishi maqsadga muvofiqdir. Shunda o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirishi osonlashadi. Ma’lumotlar xotirada qoladi. Yana ma’lumotlarga duch kelinganda o‘quvchilar xotirasida saqlangan bilimlarini ishga soladilar va ularda mustaqil ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi. Mavzularning o‘zaro integratsiyasini ta’minlagan holda darslarni o‘tish o‘qituvchiga vaqtni tejash, o‘quvchilarga esa, ma’lumotlarni xotirada saqlash imoniyatini kengaytiradi. Shuning uchun bugungi kunda kar va zaif eshituvchi bolalarga ona tilini integrativ tarzda o‘rgatishni ratsional metodik yo‘l sifatida e’tirof etish mumkin degan xulosaga kelindi va ta’limiy tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish uchun ham tadqiqotning keyingi bosqichida aynan kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni boshlang‘ich ta’lim davridan ona tilini o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish masalasini alohida maxsus metodik tizim asosida o‘rganish lozim degan xulosalarga kelindi.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi “**Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etishning metodik tizimi**” deb nomlangan bo’lib, unda maxsus maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ modellashtirishning samarali omillari va tamoyillari bayon etilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslari quyidagilar:

“Nutq o‘stirish” darslarida o‘quvchilar atrofdagilarga savol berish va o‘zgalarning savollarini tushunishga, axborotni uzatish va qabul qilishga o‘rgatiladi. Biz tadqiqot davomida bu fanni o’qitish jarayoniga murojaatlarni tinglab tushunishga unovchi mashqlarni joriy etdik. Natijada o’quvchilar og‘zaki nutqni ko’rib-eshitib

farqlashga o‘rgandilar va ularning lug‘at boyligi rivojlandi. Darslarda integrasiyaning quyidagi shakllari yo’lga qo’yildi: predmetlarni nomlash va bu so’zlardan boshqa darslarda foydalanish, tabiat hodisalari mohiyatini tushuntiruvchi ish turlari qo’llanildi va natijada sabab-oqibat mazmunidagi axborotni yozishga o’rgatishga erishildi, o‘zaro nutqni eshitish va korreksiyalash bo’yicha nutqiy vaziyatlar yaratildi, bu vaziyatlar tarbiyaviy mashg’ulotlarda qo’llanildi, “Matematika”, “Predmetli-amaliy ta’lim”, “Tabiiy fanlar”, “Ona tili” fanlaridan matnlarga oid savollar tuzish va o’rtoqlariga berish topshirig’i qo’llanildi.

“Nutqiy muloqot” darslarida korreksion soatlar tarkibida tursa-da, dars sifatida tashkil etiladi. Bu dars ona tili, nutq o‘stirish, savod o‘rgatish, tabiiy fanlar, o‘qish, yuqori sinflarda ona tili va adabiyot fanlari mazmuniga asoslanib, o‘quvchilarning og‘zaki va yozma muloqotini rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Dars uchun tanlangan o‘quv materiallari(topshiriqlar) nutqning grammatik qurilishini shakllantirishga xizmat qildi. Buning uchun o‘qituvchilar tomonidan har bir dars uchun nutq materiallari aks etgan kartochkalar, plakatlar, jadvallar va turli didaktik vositalarni tayyorlashi va dars jarayonida ulardan samarali foydalanishlari alohida talab etildi. Ma’lumki, kar va zaif eshituvchi bolalar muloqotda og‘zaki, yozma, daktil va imo-ishorali nutq vositalaridan foydalanadilar. Ushbu masalani hal etish maqsadida ushbu fan amaliyotga tatbiq etildi. Ya’ni ushbu dars orqali kar va zaif eshituvchi bolalar o‘z fikrini og‘zaki ravishda tushuntira olmagan vaziyatlarda mustaqil yozma nutq orqali murojaat qilishga o‘rgandilar. O’quvchilarni o‘z fikrini mustaqil ravishda yozuv qoidalariga rioya etgan holda bildirishga tayyorlaydigan mashqlar klasteri tuzildi. Buning uchun “Aqlli grammatika” nomli grammatik topshiriqlar instruksiyalarining turli modifikasiyalari ishlab chiqildi. Ularning maqsadi o‘quvchini nafaqat chiroyli yozishga, balki o‘z fikrini qisqa va lo‘nda atrofdagilarga tushunarli tarzda bayon etishga o‘rgatdi. Ushbu dars mazmunida til o‘rgatishning “Nutqning grammatik qurilishini shakllantirish” bo‘limi vazifalari ham bajarildi. Ya’ni o‘quvchilar nutqiy muloqotda qo‘llagan tushunchalarni mustaqil ravishda yozish ustida mashqlar bajardilar. Bundan tashqari o‘quvchilar hayotda atrofdagilar bilan mustaqil muloqotga kirishish imkoniyatini beruvchi vositalar (bloknotlar, telefon, ish qog‘ozlari...)dan foydalanish usullarini egalladilar. Shu bois tavsiya etilgan ish turlari nafaqat o‘quvchining o‘z nutqi, balki o‘zaro nutqiy muloqotini rivojlantirishga yo‘naltirildi. Nutqiy materiallar mazmuni o‘quvchilarga tanish bo‘lgan (o‘qish kitobi, ona tili, nutq o‘stirish...) tushunchalardan tashkil topdi.

Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga ona tilini integrativ o‘qitishda samarali tashkil etiladigan fanlardan biri “Predmetli amaliy ta’lim” hisoblanadi. Mazkur fan doirasida S.A.Zikov tomonidan ishlab chiqilgan “Kommunikativ tizim” asosida “Yashiringan so‘zni top”, “Qatordan xatoni top”, “Chiziqlarni ula va harf hosil qil”, “Eshit va qaytar” kabi innovatsion metodlardan foydalanildi. Ushbu metodlarni qo‘llashda nutqiy materiallarni soddadan murakkabga tamoyili asosida tanlash, kommunikativlik, sistemalilik, izchillik, ko‘rgazmalilik hamda mavzuli-vaziyatboplik prinsiplariga amal qilindi. Nutqiy materiallar o‘quvchilarda muloqot ehtiyojini shakllantirish va kundalik hayotda uchraydigan vaziyatlar asosida nutqiy faollikni rivojlantirishga yo‘naltirildi. Tadqiqotda boshlang‘ich sinf kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning qisqa muddatda lug‘at boyligini egallashi, uni og‘zaki va yozma

nutqda grammatik jihatdan bog‘langan holda qo‘llay olishi uchun zarur pedagogik vositalar va omillarni aniqlash masalasi asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalish sifatida belgilandi.

Metodik tizimning muhim komponenti sifatida “Predmetli amaliy ta’lim” darslari tanlandi. Ushbu fan kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarning aqliy, nutqiy hamda amaliy faoliyatini integrativ rivojlantirish imkonini beruvchi korreksion-pedagogik vosita sifatida talqin etildi. Dars mazmunida til o‘rgatish va mehnat faoliyati o‘zaro uyg‘unlashtirilib, nutqiy muloqotni rivojlantirish mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshirildi. O‘quvchilar predmetli-amaliy faoliyat jarayonida atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini boyitib, hayotiy tajribalarni amaliy faoliyat orqali o‘zlashtirdilar. Shuningdek, mazkur fan o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvi, lug‘at zaxirasini boyitish, tilni tafakkur va muloqot vositasi sifatida egallash, kasbgacha tayyorgarlik hamda ijodiy-loyihaviy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslandi.


Tadqiqotda kar va zaif eshituvchi bolalarga differensial yondashuvni qo‘llash hamda korreksion ishlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash zarurligi ta’kidlandi. Maxsus maktab-internatlarda umumta’lim fanlari bilan bir qatorda qo‘shimcha korreksion mashg‘ulotlar tashkil etilishi o‘quvchilarning birlamchi va ikkilamchi nuqsonlarini bartaraf etishda muhim omil sifatida baholandi. Ayniqsa, predmetli-amaliy faoliyat jarayonida diqqatning tarqoqligi, xotira va iroda sustligi, so‘z-mantiqiy tafakkur yetishmovchiligi kabi holatlarni korreksiya qilish imkoniyati yuqori ekanligi aniqlandi.

Predmetli-amaliy ta’lim darslarini erkin va ijodiy muhitda tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil faoliyatini faollashtirib, ularning o‘quv motivatsiyasi va kommunikativ ehtiyojlarini oshiradi. Mazkur jarayonda muloqot dastlab imo-ishora vositasida shakllanib, keyinchalik daktil-og‘zaki, og‘zaki hamda yozma nutqqa bosqichma-bosqich o‘tishi kuzatildi. Ushbu darslar nutqiy rivojlanish, daktil nutqni shakllantirish hamda tovushlarni to‘g‘ri qo‘yishda muhim pedagogik asos bo‘lib xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslandi.Bundan tashqari, predmetli-amaliy ta’lim jarayonida ona tiliga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni intensiv rivojlantirish maqsadida STEAM texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etildi. Mazkur yondashuv asosida sinflar kesimida integrativ dars ishlanmalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etildi.

O‘quvchilarga ona tilini integrativ o’qitishning samarali komponenti sifatida korreksion va tarbiyaviy mashg’ulotlar jarayoni tanlandi. Bu jarayonda ham korreksion-rivojlantiruvchi metdoik tizim mazmuni va tarkibi takomillashtirildi.

Tadqiqot doirasida “Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish modeli” tarkibi va mazmuni takomillashtirildi (1-rasmga qarang). Integrativ model faoliyatli yondashuv asosida kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, G.Abdullayeva, U.Fayziyeva, Z.Mamarajabovalarning modellariga tayanilib, takomillashtirildi.

Model o‘zaro uzviy bog‘langan maqsadli, mazmunli, faoliyatli, baholash va natijaviy bloklardan iborat.



1-rasm. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida ona tili o‘rgatish darslarini integrativ tashkil etish modeli

Taklif etilgan model kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarga ona tilini integrativ o‘qitish jarayonini tizimli tashkil etish imkonini beruvchi ko‘p komponentli pedagogik tizim sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ilmiy imkoniyatlari quyidagi jihatlarda namoyon bo‘ladi: Model integrativ yondashuv asosida ta’lim mazmunini uyg‘unlashtirish imkonini beradi. Ya’ni, ona tili boshqa fanlar (o‘qish, predmetli-amaliy ta’lim, nutqiy muloqot) bilan uzviy bog‘langan holda o‘qitilib, o‘quvchilarning nutqiy faoliyati tabiiy kommunikativ muhitda shakllantiriladi. Bu esa bilimlarning fragmentar emas, balki tizimli o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Model korreksion yo‘naltirilgan pedagogik ta’sirni kuchaytiradi. Unda o‘quvchilarning ikkilamchi nuqsonlarini (diqqat, xotira, tafakkur, nutq) bartaraf etishga xizmat qiluvchi maxsus shart-sharoitlar, metodlar va vositalar mujassamlashtirilgan. Natijada ta’lim jarayoni nafaqat o‘qituvchi, balki rivojlantiruvchi va tuzatish (korreksiya) vazifasini ham bajaradi. Model faoliyatga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi. O‘quvchilar bilimni tayyor shaklda emas, balki amaliy faoliyat, muloqot va mustaqil topshiriqlar orqali egallaydilar. Bu esa ularning nutqiy, kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantiradi.

Model individuallashtirish va differensial yondashuvni ta’minlaydi. O‘quvchilarning eshitish darajasi, nutq rivoji va psixologik xususiyatlari hisobga olinib, ta’lim shakllari (guruhli va yakka), metodlar va vositalar moslashtiriladi. Bu esa har bir o‘quvchining rivojlanish dinamikasini samarali boshqarishga xizmat qiladi. Model zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini integratsiya qilish imkonini yaratadi.

